


2020- yil yanvar oyi davrida Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar oyida Toshkent viloyatida jami **534,8** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2020- yilning mos davriga nisbatan **104,6 %**ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar oyida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2021- yil 1- fevral holatiga ko'ra qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3,6 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 546 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili, bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **111,1%**ga (jami qurilishdagi ulushi **54,0%**), fuqarolik obyektlarini qurish **132,5%**ga (jami qurilishdagi ulushi **7,0%**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **126,3%**ga (jami qurilishdagi ulushi **38,9%**) o'sishidir.




Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da
	01.02.2020- yil	01.02.2021- yil	
Toshkent viloyati	3045	3591	117,9
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	160	168	105,0
Olmaliq	190	212	111,6
Angren	227	285	125,6
Bekobod	153	174	113,7
Ohangaron	97	114	117,5
Chirchiq	246	300	121,9
Yangiyo'l	79	86	108,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	85	96	112,9
Ohangaron	63	77	122,2
Bekobod	104	104	100,0
Bo'stonliq	111	130	117,1
Bo'ka	83	112	134,9
Quy Chirchiq	75	89	118,6
Zangiota	203	249	122,7
Yuqori Chirchiq	181	205	113,3
Qibray	279	357	127,9
Parkent	96	107	111,4
Piskent	68	79	116,2
O'rta Chirchiq	184	204	110,9
Chinoz	91	113	124,2
Yangiyo'l	142	174	122,5
Toshkent	128	156	121,9



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 01.02.2021- yil holatiga ko'ra (ulushi %da)



Ma'lumot uchun: Viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray tumanida (9,9 %), Angren (7,9 %) va Chirchiq shaharlarida (8,4 %) qayd etildi.

Joriy yilning yanvar oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **43,7** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **108,9 %** oʻsish koʻrsatkiciga erishildi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan 3,8 % punktga kamaygan, **8,2 %**ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Zangiota (jami qurilish ishlari hajmining **11,7 %**i yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan **115,3 %**), Qibray (jami qurilish ishlari hajmining **9,4 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **112,4 %**) va Yuqorichirchiq (jami qurilish ishlari hajmining **6,7 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **106,0 %**) tumanlariga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar oyida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **69,5 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar oyi ko'rsatkichiga nisbatan **16,6 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **106,4 %**ni tashkil etgan holda **372,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **22,3 %**ni tashkil etdi yoki **119,1** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **97,4 %**ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **12,3** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarildi yoki 2020-yilning yanvar oyiga nisbatan oʻsish surʼati **308,6** %ga teng boʻldi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **522,5** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati **269,6** %ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **2,3** % va **97,7** %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2020-yil yanvar-dekabr oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, %da
Toshkent viloyati	534,8	104,6	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	24,3	102,1	4,5
Olmaliq	19,7	101,3	3,7
Angren	22,7	100,8	4,2
Bekobod	20,2	100,3	3,8
Ohangaron	18,9	102,8	3,5
Chirchiq	26,3	100,1	4,9
Yangiyo'l	11,3	102,1	2,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	16,4	101,9	3,1
Ohangaron	15,3	101,7	2,9
Bekobod	14,6	103,3	2,7
Bo'stonliq	26,6	106,3	5,0
Bo'ka	15,8	101,9	3,0
Quy Chirchiq	13,1	102,9	2,5
Zangiota	62,7	115,3	11,7
Yuqori Chirchiq	35,6	106,0	6,7
Qibray	50,1	112,4	9,4
Parkent	30,8	100,8	5,8
Piskent	16,9	100,1	3,2
O'rta Chirchiq	24,7	103,9	4,6
Chinoz	15,2	102,3	2,8
Yangiyo'l	19,7	101,2	3,7
Toshkent	33,8	103,0	6,3



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar oyida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1
Zangiota
62,7

2

Qibray
50,1

3
Yuqori Chirchiq
35,6



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

1
Yangiyo'l sh
11,3

2

Bekobod t
14,6

3
Quyi Chirchiq
13,1



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (71) 202-86-70